



KICHIK BIZNES FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA AHOLI TURMUSH SIFATINI YAXSHILASH

Annayev Abbas Baxtiyor o'g'li

Xalqaro innovatsion universiteti katta o'qituvchisi

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

orcid:0009-0002-9847-2163

abbos.annayev.91@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada kichik beznis faoliyatini rivojlantirish asosida aholi turmush sifatini yaxshilash, mintaqada aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ahamiyatining shart-sharoitlari, tamoyillari, xorij tajribasi va undan samarali foydalanish yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kichik beznis, aholi, aholining turmush darajasi, xususiy tadbirorlik, ishsizlikni amaytirish.

KIRISH. Bugungi kunda Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, sayyoramizda 736 million kishi turmush darajasi past bo'lgan kambag'allik sharoitida kun kechirmoqda. BMT turmush darajasi past bo'lgan kambag'allik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy haqini to'lash, suv bilan ta'minlash, elektr energiyasi, maktab ta'limi, tibbiy xizmat) uchun zarur bo'lgan daromadlar sifatida belgilaydi. Turmush darajasi past bo'lgan nisbiy tushuncha sanaladi va muayyan mamlakatdagi umumiy farovonlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodchi olim Dinitto AQShda turmush darajasi past bo'lgan kambag'allikni aniqlash va tushunishdagi besh xil yondashuv mavjudligini ta'kidlaydi. Bular: tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko'rinishdagi turmush darajasi past bo'lgan, tengsizlik ko'rinishdagi turmush darajasi past bo'lgan, madaniyat ko'rinishdagi turmush darajasi past bo'lgan, ekspluatatsiya



ko‘rishdagi turmush darajasi past bo‘lgan va tarkibiy ko‘rinishdagi turmush darajasi past bo‘lgan.

Aholi turmush darajasi insonlarning hayotiy ehtiyojlarini ta‘minlash me‘yori sifatida aholi iste‘mol miqdori va sifatini ko‘rsatadi hamda doimo yaxshilanib boradi. Xo‘p ana shu iste‘mol, ya‘ni kishilarning ehtiyojini qondirish nimalarga bog‘liq, unga qarab kishilar turmush darajasining to‘qligi, hayotining farovonligi darajasi haqida xulosa chiqarish mumkinmi? Kishilarning turmush darajasi shu jamiyatlardagi ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Chunki iste‘mol ishlab chiqarishga nisbatan hosila. Bu yerda milliy daromadning jamg‘arish va iste‘mol fondiga bo‘linish nisbati mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot holatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, aholi turmush darajasi – keng qirrali jarayon bo‘lib, u turli sabablarga bog‘liq (aholi yashaydigan hududdan, ya‘ni geografik omildan boshlab, mamlakatda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik holat hamda siyosiy ishlarning holatigacha). Aholi turmush darajasiga u yoki bu darajada demografik holat hamda uy-joy-maishiy va ishlab chiqarish sharoitlari ham, iste‘mol tovarlarining hajmi va sifati ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra biz kambag‘allikni qisqartirish asosida aholi turmush sifati darajasini to‘rtta guruhga ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Tadqiqotlardan shu ma‘lum bo‘ldiki, iqtisodiy adabiyotlarda aholining turmush darajasini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlar tizimiga bir qator ko‘rsatkichlar kiritilgan. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko‘rsatkichlari tizimining oxirgi versiyasi 1978-yilda ishlab chiqilgan va ushbu tizim 12 ta asosiy guruhini o‘z ichiga oladi. Bular: aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot, tug‘ilish, o‘lim, umr ko‘rish davomiyligi, sanitar-gigiyenik sharoitlarining mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste‘mol darajasi, uy-joy sharoitlari, ta‘lim olish va madaniy imkoniyatlarning mavjudligi, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste‘mol narxlari, transport vositalari bilan ta‘minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish imkoniyatlarining mavjudligi, ijtimoiy ta‘minot tizimining mavjudligi,




inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabilar turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Monografik kuzatishlar natijasida ayon bo‘ldiki, O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirish va qashshoqlikning oldini olish maqsadida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy ishlar bajarilib, ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi.

Xususan:

xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun qonuniy huquqlar joriy etilib, ularning shaxsiy manfaatdorligini oshirish va manfaatlarini muhofaza qilish tizimi shakllantirildi(1-rasm);



1-rasm Aholi turmush sifati darajasi.



xususiy tadbirkorlik erkinligining kafolatlari tizimi shakllantirildi;

xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning yengillashtirilgan, raqamlashtirilgan tartibi joriy etildi;

xususiy tadbirkorlik subyektlarining moddiy-texnik resurslarni erkin sotib olishiga birja savdolari orqali erishishiga qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratildi;

tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash soddalashtirildi;

soliq yukini pasaytirish va soddalashtirish choralari ko'rildi; statistika va soliq hisobotining qisqartirilgan shakli kiritild.

Xulosa. Xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki aholi turmush darajasining oshishini ham ta'minlaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda moliyaviy resurslarni taqdim etish orqali turmush darajasini yaxshilash mumkin. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy farovonlikni oshiradi. Aholining ish bilan bandligi aholi turmush sifatini yaxshilanilishiga xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida mavjud ushbu muammolarni samarali hal etish uchun respublika hukumatining bu sohani qo'llab - quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bunday konsepsiyaning asosida nomutanosibliklarni bartaraf etishga, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi tuzilmaviy o'zgarishlar maqsadga muvofiqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // 30.12.2020 10:00.10.3К. <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistanashavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>
2. Deaton A. (2013) The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality, Princeton, N.J.: Princeton University Press 27
3. Q.X.Abdurahmonov, SH.R.Xolmo'minov “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. - O'quv qo'llanma -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004 y.
4. Ўзбекистон Республикаси Статистика Қўмитаси маълумотномаси
5. Ўзбекистон Республикасининг "Оилавий тадбиркорлик тўғрисида"ги Қонун 2012 йил 26 апрел. //Халқ сўзи, 2012 йил 27 апрел.
6. Ибрагимова Н.М. “Аҳоли истеъмолини макроиқтисодий такомиллаштириш” иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент –2019 й.
7. Мустафокулов Ш.И. “Камбағаллик айб эмас, бироқ ...”. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 25март.
8. Sen A. (1981) Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Clarendon Press;
9. Raximov, A. N. (2023). Dehqon xo 'jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga tasir etuvchi omillar. Экономика и социум, (3-2 (106)), 255-262.



10. Jo'rayev, F. (2021). Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqboldagi muammolari va ularni ekonometrik modellashtirish. Iqtisodiyot va ta'lim, (4), 377-385.
11. Maxmatqulov, G. O. X. (2023). “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishda virtual cisco packet tracer dasturidan foydalanish. Educational research in universal sciences, 2(15), 483-486.
12. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(6), 245-250.